

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus talim vazirligi
Buxoro davlat universiteti**

Jahon tarixi kafedrası

KAMOL RAXMONOV

**“1918-1939 - yillarda Germaniya”
mavzusi yuzasidan dars ishlanmasi**

Metodik qo‘llanma

BUXORO-2019

Ushbu ishlanma Buxoro davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası yig'ilishining 2019 yil 30 yanvardagi 6-son bayonnomasi va Buxoro davlat universiteti o'quv-metodik kengashi 2019 yil bilan nashrga tavsiya qilindi.

Taqrizchilar:

Sh. A. Haitov – tarix fanlari doktori, professor.

T.T.Qayumov - tarix fani o'qituvchisi.

So‘z boshi

O‘zbekiston mustaqilligi yillarida jahon tarixi va O‘zbekiston tarixini ob’ektiv, xolisona o‘rganish, mamlakatimiz o‘tmishi ham jahon tarixining ajralmas bir qismi ekanligini anglash borasida bir qator ilmiy yutuqlar qo‘lga kiritildi. Tarixiy ilm va tushunchalarni egallashda ikki jahon urushi oralig‘ida dunyo mamlakatlarida kechgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy jarayonlardan xabardor bo‘lish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, dunyo ko‘p qutbli bo‘lgan hozirgi davrda tinchlik va xalqaro hamjihatlikning roli oshib borayotganligi isbot talab qilmaydi. Urush o‘chog‘i bo‘lgan Evropa va bu hududda fashizmning yuzaga kelib hukmron kuchga aylanish sabablari bilan bog‘liq munozaralar hamon davom etmoqda. Shu tufayli, 1918-1939 yillarda Germaniya mavzusini chuqur va mukammal o‘rganish dolzarblik kasb etadi.

Ikkinchidan, ikki jahon urushi oralig‘ida Germaniya va Turkiston (O‘zbekiston) o‘rtasidagi aloqalarning yo‘nalishlari hamda tarixiy tajribasidan xulosalar chiqarish ham muhimdir.

SHuningdek, O‘rta Osiyodagi nemis diasporasi va uning holati haqidagi tarixiy dalillar mazkur mavzu orqali fanlararo bog‘lanish imkoniyatlarini kengaytirishi ham mavzu dolzarbligidan dalolat berib turibdi.

Mazkur dars ishlanmasi 5120300 –Tarix (jahon mamlakatlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabalariga 3.10. “Xorijiy mamlakatlarning zamonaviy tarixi” fanidan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etishda qo‘llanilishi mumkin.

1918-1939 yillarda Germaniya mavzusini atroflicha va keng qamrovli o‘rganish uchun 1917-1930 yillarda Turkistonda chop etilgan davriy matbuot materiallari, mavzuga oid qo‘shimcha boy ma’lumotlar beradi. Jumladan, 1920-1929 yillarda Buxoroda dunyo yuzini ko‘rgan “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarda Germaniyaning urushdan keyingi o‘n yilliklaridagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy ahvoliga oid ko‘pgina ma’lumotlar keltirilgan. Germaniyadagi siyosiy ahvol, madaniy hayot, qo‘shni mamlakatlar Avstriya va AQSH bilan diplomatik muzokaralar, reparaatsiya to‘lovlari, fashizmning yuzaga kelishi va yoyilishi to‘g‘risida ko‘p voqeliklardan voqif bo‘linadi. Ayniqsa, Germaniya - Turkiston, Germaniya - BXSRS savdo-sotiq va gumanitar aloqalari tarixiga oid qiziqarli ma’lumotlar mahalliy matbuot sahifalarida keltirilgan. SHuningdek, qo‘shimcha adabiyotlar sirasiga Germaniyada tahsil olgan talabalar taqdiriga tegishli bo‘lgan, istiqloq yillarida yaratilgan kitob va maqolalardan ham foydalanish ma’lumotlar doirasini kengaytiradi.

Mazkur mavzuni o‘tishda o‘quv mashg‘ulotini ta’lim texnologiyasi, uning maqsadi, pedagogik vazifalari, o‘qitish metodlari, o‘qitish vositalari, o‘quv

faoliyatini tashkil etish shakllari yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. SHuningdek, o'qituvchi 1918-1939 yillarda Germaniya mavzusini texnologik xaritasini yaratar ekan, dars bosqichlariga o'quvchilarni faolligini oshirishga e'tibor qaratadi. "Venn texnologiyasi" asosidagi qiyoslash uslubidan, shuningdek, interfaol usullar hisoblangan "5 daqiqa", "Pochta", "Kichik guruhlarda ishlash", "Klaster", "Aqliy hujum", "Qarorlar shajarasi" kabilarni dars jarayonida samarali qo'llasa o'quvchilar faolligi oshadi.

Talabalarga "1918-1939 yillarda Germaniya" mavzusi yuzasidan bilim va ko'nikmalar hosil qilish bilan birga, ularga yangi bilimlar beriladi, ilmiy tushuncha va tasavvurlari kengaytiriladi. Mazkur mavzuni o'qitish orqali talabalarni tinchlik va uning qadr-qimmatini teran anglash, har qanday yot unsur va g'oyalarga qarshi turish, fashizm va neofashizmga nisbatan nafrat ruhini tarbiyalash nazarda tutiladi. Bugungi avlodda mafkuraviy immunitet, qat'iy iroda va kelajakka ishonch ruhini tarbiyalash maqsadi ko'zlanganligi ham mavzuning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

SH.A.Hayitov- BuxDU "Jahon tarixi" kafedrasi mudiri, tarix fanlari doktori.

1. “1918-1939 yillarda Germaniya” mavzusining mazmuni

Germaniya va uning ittifoqchilari Birinchi Jahon urushida magʻlubiyatga uchradi. Germaniya urushda 2 mln.dan ortiq qurbon berdi. YArador boʻlganlar, asirlar va bedarak yoʻqolganlarni qoʻshganda, jami yoʻqotish 7,5 mln. kishini tashkil etdi. Ayni paytda hukmron doiralar, monopoliya egalari urushdan katta foyda koʻrdilar. (Masalan, birgina Krupp konsernining daromadi 15 barobar ortdi). Natijada yirik mulkdorlar mamlakat hayotida qudratli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy kuchga aylandilar va hukumat siyosatiga katta taʼsir koʻrsata boshladilar. Urush mehnatkash tabaqalarga katta salbiy oqibatlar keltirdi.

Umumiy mehnat majburiyati ishchilar uchun amalda katorgaga teng edi. Urush qishloq xoʻjaligiga ham katta talofatlar keltirdi. 1918 yilning kuziga kelganda ekin maydonlari amalda 2 baravar kamaygan edi. Ochlik, epidemiyalar va choʻzilib ketgan urush azoblari aholining boshiga juda katta kulfatlar keltirdi. Aholining bunday qismati mamlakatda inqilobiy vaziyatni vujudga keltirdi. Ayni paytda Rossiya inqilobi ham oʻz taʼsirini oʻtkazmay qolmadi.

Germaniya inqilobi 1918 yil 3 noyabr kuni boshlandi. SHu kuni Kil shahrida joylashgan harbiy dengizchilar urush davom etishiga qarshi qoʻzgʻolon koʻtardilar. Kil ishchilari esa qoʻzgonlarni qoʻllab -quvvatladilar va umumiy ish tashlash eʼlon qildilar. Inqilob toʻlqini 9 noyabrda Berlingacha etib keldi va u butun Germaniyaga yoyildi. Qoʻrqib ketgan imperator Vilgelm II mamlakatdan qochib ketdi. SHu tariqa Germaniyada monarxiya quladi. Mamlakatda hokimiyat xalq vakillari qoʻliga oʻtdi. 10 noyabrda tuzilgan yangi hukumatga Germaniya sotsial-demokratik partiyasining yirik arboblardan biri - F.Ebert rahbarlik qilgan. Bu hukumat Germaniyani Respublika deb eʼlon qildi va u 11 noyabr kuni Antanta bilan dastlabki yarash bitimi imzoladi. Bu bitimning imzolanishi yangi hukumatning xalqaro maydonda tan olinishi degani edi. Unga koʻra mamlakatda qamal holati bekor qilindi.

Soʻz, yigʻilish oʻtkazish, uyushmalarga birlashish erkinligi eʼlon qilindi. SHuningdek, siyosiy mahbuslarga amnitsiya eʼlon qilindi. Birinchi marta umumiy, teng, toʻgʻridan- toʻgʻri, yashirin ovoz berish yoʻli bilan saylov oʻtkazish joriy etildi. Ayni paytda hukumat demolizatsiya qilingan soldatlarni, ishsizlarni ish bilan taʼminlash va ijtimoiy himoya qilish tadbirlarni koʻra boshladi. Kasaba uyushmalari korxonalarda ishchi nazoratini olib boruvchi qoʻmitalar tuza olish huquqlari tan olindi. Bundan tashqari, hukumat eng yirik korxonalarni davlat ixtiyoriga oʻtkaza olish huquqiga ega boʻldi. Germaniyada eng ommaviy va nufuzli partiya Germaniya sotsial- demokratik partiyasi edi. Biroq bu partiyada hech qachon yagona birlik boʻlmagan. Partiya amalda oʻnglar, markazchilar, soʻllar deb atalgan 3 oqimga boʻlingan edi .

O'ng oqim (yirik namoyandalari F. Ebert, SHeydeman, Bernshteyn, Noske)ning maqsadi burjua tartiblarini saqlab qolish, islohotlar o'tkazib, aholini ijtimoiy himoya qilish va mamlakatda parlament respublikasini to'la qaror toptirish edi.

So'llar esa (yirik namoyandalari K. Libknext va R. Lyuksemburg) monarxiyaga inqilobiy yo'l bilan to'la barham berish, Rossiyadagidek sotsialistik jamiyat qurish uchun kurashdilar. So'llar "spartakchilar" degan guruhga birlashdilar. Keyinchalik bu guruh asosida Germaniya kommunistik partiyasi tuzildi.

Markazchilar (yirik namoyandalari K.Kautskiy va Gaaze) 1917 yilning bahorida Germaniya mustaqil sotsial –demokratik partiyasini tuzdilar va partiya vakillari Ebert hukumati tarkibiga kirdilar.

"Spartakchilar" guruhi sotsialistik inqilobni amalga oshirish, sovet hokimiyatini o'rnatish va barcha ishlab chiqarish vositalarini umumlashtirish uchun kurash olib boshladilar. "Spartakchilar" 1918 yilning 30 dekabrda Germaniya kommunistik partiyasini tuzdilar. 5 yanvarda Berlinda ishchilarning stixiyali qurolli chiqishi ro'y berdi. Bu chiqish hukumat tomonidan bostirildi. 15 yanvarda esa K. Libnext va R. Lyuksemburglar o'ldirildilar. SHu tariqa o'ng sotsial-demokratlar o'z hokimiyatini ochiq shaklda terrorchilik yo'li bilan yanada mustahkam qaror toptirdilar. Kommunistlar kurashni parlamentdan tashqari davom ettirdilar. 13 aprelda esa ular Bavariya o'lkasida sovet hokimiyatini o'rnatdilar va Bavariya sovet respublikasi tuzilganligini e'lon qildilar. Biroq bu respublika atigi 3 hafta yashadi. 19 yanvar kuni Ta'sis majlisida bo'lib o'tgan saylovlarda o'nglar va markazchilar g'alaba qozondilar.

Ta'sis majlisi osoyishta Veymar shahrida o'z ishini boshladi. SHuning uchun ham Ta'sis Majlisida qabul qilingan Konstitutsiya va uning asosida tuzilgan respublika Germaniya tarixida Veymar konstitutsiyasi va Veymar respublikasi nomi bilan kirdi.

Konstitutsiya Germaniyani kuchli prezidentlik hokimiyatiga ega bo'lgan federativ respublika deb e'lon qildi. Ayni paytda hukumatning prezident oldida emas, parlament (reyxstag) oldida javobgar ekanligi belgilab qo'yildi. Fridrix Ebert Germaniyaning birinchi prezidenti etib saylandi. Konstitutsiyada xususiy mulkning muqaddas va daxlsiz ekanligi qayd etildi hamda 20 yoshdan boshlab erkaklar va ayollar uchun yalpi saylov huquqi berildi. So'z, yig'ilish, matbuot erkinligi e'lon qilindi va referendum o'tkazish mumkinligi belgilab qo'yildi.

Hukumat reyxstagda ko'p o'rin olgan partiya yoki partiyalar ittifoqidan tuziladigan bo'ldi. Bosh vazir (kansler) Prezident tomonidan tayinlansa-da, u reyxstagga hisob beradi. Ikki palatadan iborat qonun chiqaruvchi hokimiyat ta'sis etildi. Quyi palata (reyxstag) butun Germaniya bo'yicha yalpi ovoz berish yo'li

bilan saylanar edi. Yuqori palata (reyxsrat) esa belgilangan normalarda o'lk va viloyat vakillaridan iborat bo'lardi. Reyxsrat veto huquqiga ega edi.

Davlat boshlig'i - Prezidentga juda katta vakolatlar berilgan edi. U bir vaqtning o'zida respublika qurolli kuchlarining oliy bosh qo'mondoni hisoblanar edi. Prezident reyxstagni tarqatib yuborish va unga yalpi saylov belgilash huquqiga ham ega bo'ldi. SHuningdek, Prezidentga lozim bo'lganda favqulodda dekretlar chiqarish yo'li bilan mamlakatni boshqarish, majburlash choralarini qo'llash huquqi ham berildi.

Bundan tashqari, Prezident Konstitutsiyaning u yoki bu moddalarining amal qilinishini to'xtatib ham qo'ya olardi. Prezidentning yalpi ovoz berish yo'li bilan 7 yil muddatda saylanishi belgilab qo'yildi. Veymar Respublikasi demokratik kuchlarning muhim yutug'i edi. Germaniyada demokratik respublika tuzumining qaror topishi va yangi siyosiy tizimning barqarorlashuvi juda qiyin kechdi. 1919 yildan 1923 yil oxirigacha mamlakatda keskin siyosiy vaziyat saqlanib turdi. Buning sababi, bir tomondan, Versal shartnomasi va Veymar konstitutsiyasiga qarshi kuchlarning bosh ko'targanligi edi. Bu kuchlar Veymar shartnomasi va Veymar Konstitutsiyasini tan olmadilar.

1924-1929 yillar oralig'ida chet davlatlarning Germaniyaga bergan qarzlar, kiritgan sarmoyalari 21 mlrd markani tashkil etdi. AQSHning o'zi 10 mlrd. dollarlik sarmoya kiritdi. Bu qarz o'z samarasini ko'rsatdi. Germaniya iqtisodiy taraqqiyotida katta muvaffaqiyatlarga erishdi va 1927-1928 yillarga kelib bu davlat sanoat ishlab chiqarish va tashqi savdo hajmi bo'yicha urushdan oldingi darajaga chiqib oldi. 1929 yilda esa undan ham oshib ketdi. Sanoat taraqqiyotida u Buyuk Britaniya va Fransiyani orqada qoldirdi. 1929-yilda "Daues rejasi" "YUng rejasi" bilan almashtirildi.

Fashizm – bu, davlat boshqaruvining terrorchi totalitar shakli, hukmdor doiralarining eng reaksiya va agressiv kuchlari manfaatini ifodalovchi oqim. U dastlab Italiyada vujudga kelgan. "Fashizm" atamasi "fashio" so'zidan olingan bo'lib, "to'da", "uyushma" degan ma'nolarni anglatadi. 1919 yilda Italiyada birinchi jahon urushining sobiq askarlari o'z manfaatlarini, haq-huquqlarini himoya qilish uchun kurashuvchi tashkilot tuzdilar. Bu tashkilot "Fashi di kombattimento" ("Quroldoshlar kurash uyushmasi") deb atalgan. Tashkilot a'zolari "fashistlar" harakat esa "fashizm" nomini olgan, u turli joyda turli nom bilan, masalan, Germaniyada "natsistlar" deb atalgan.

Fashizmning mohiyatini uning quyidagi belgilari yaqqol tasvirlab beradi. Uning birinchi belgisini o'ta millatchilik tashkil etadi. Fashistlar uchun millat manfaati boshqa har qanday manfaatdan ustun turadi. Ular jamiyatni sinflarga

bo'lmaydi. Xo'sh, nima uchun millatchilik Germaniya va Italiyada boshqa davlatlardagiga nisbatan kuchli bo'lgan edi?

Ular birinchi jahon urushi oqibatlarini o'zlari uchun katta haqorat, milliy tuyg'uning mislsiz tahqirlanishi, deb qabul qilgan edilar. Nemis millati Versal shartnomasi shartlariga toqat qila olmayotgan edi. Italyan millati esa o'zini "g'oliblar ichida mag'lub", deb hisoblardi. Chunki Antanta tarafida urushda ishtirok etgan g'olib Italiya urushda ko'zlangan maqsadlariga erisha olmagan edi. Germaniyada millatchilik irqchilik bilan qo'shilib ketgan edi. Natsistlar fikricha, butun insoniyat tarixi – bu, turli millatlar va irqalar kurashi tarixi edi. Bu kurashda faqat kuchlilargina g'olib chiqadi. Mag'lublar qismati yo o'lim, yo g'oliblarga bo'ysunishdir. Qudratli irq – bu nemis millatiga mansub bo'lgan oriy, nordik irqdir. Ularning tarixiy missiyasi butun dunyoga hukmron bo'lishdir.

Fashizmning yana bir belgisi uning o'ta agressivligidir. O'ta millatchilik va irqchilik va irqchilik sharoitida shunday bo'lishi tabiiy edi. Fashizmga xos bo'lgan yana bir belgi davlat hokimiyati oldida sig'inish, unga sajda qilish edi. Fashizm uchun bu milliy ruhni mujassamlashtiradigan qudrat, barqarorlik va tartibning kafolati edi. Fashistlar – totalitar tartib, ya'ni jamiyat hayotining barcha sohalari to'la davlat nazoratiga olingan tartib tarafdori edilar. Germaniya fashizmning ommaviy asosini Birinchi jahon urushida eng ko'p jabr ko'rgan tabaqalar – hunarmandlar, dehqonlar, urush faxriylari, ishsizlar, ertangi hayoti qanday bo'lishidan cho'chib qolgan ishchilar tashkil etdi. Yirik kapital esa fashizm qo'llab –quvvatladi. Fashistlar ichki siyosatining asosiy yo'nalishini fashizmning mohiyati belgilab tepasiga kelgach, A.Gitler hukumati birinchi navbatda siyosiy demokratiyani yo'q qilishiga kirishdi. Bu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun har qanday jirkanch vositalarni ishga soldi. Xususan, siyosiy partiyalar faoliyatiga barham berish uchun 1933 yil 23 fevralda Reyxstag binosiga o't qo'yishni uyushtirdi va aybni kommunistlarga ag'darib, bolgariyalik G. Dimitrovga ag'darib sud qildi. Lekin uni oqlashga majbur bo'ldi. Fashistlar ochiq terror yo'liga o'tdilar.

Fashistlar partiyasidan boshqa barcha siyosiy partiyalar faoliyati ta'qiqlandi. A. Gitler sotsial-demokratlarning Birinchi jahon urushiga Germaniya hayoti hal bo'layotgan kezlarda noyabr inqilobini keltirib chiqarganlikda, kommunistlarni esa "qizil diktaturani" o'rnatmoqchi bo'lganlikda va sovetlarning josuslari sifatida ayblandi.

“1918-1939 yillarda Germaniya” mavzusini o‘rganishga oid qo‘shimcha materiallar

Buxoro Respublikasining yagona matbuot organi bo‘lgan, haftada 2-3 bor, ja‘mi 2-3 ming nusxada arab imlosida o‘zbek tilida chop etilgan «Buxoro axbori» (1923 yil oktyabrdan «Ozod Buxoro») gazetasi XX asrning 20-yillari bilan, ya‘ni o‘z davri bilan hamnafas bo‘lgan. Unda er yuzidagi ayrim mamlakatlarda va xalqaro maydonda sodir bo‘lgan muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni sodir bo‘lgan vaqtidayoq baholab, xabar va voqealar e‘lon qilingan. Gazetaning yuzlab sonlaridagi maqola materiallar XX asr dastlabki o‘n yilliklari jahon tarixini o‘rganish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

«Buxoro axbori» va «Ozod Buxoro» gazetalarida birinchi jahon urushidan keyin Germaniyaning siyosiy va iqtisodiy ahvoli, ichki va tashqi siyosatiga oid ko‘plab maqola hamda xabarlar chop etilgan. Ushbu materiallar bilan tanishar ekanmiz, o‘sha davr Germaniya tarixiga oid qo‘shimcha, boy ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz.

Germaniyada kechayotgan iqtisodiy bo‘hronlar, inflyasiya jarayonlari «Buxoro axbori» va «Ozod Buxoro» gazetalarining: «Marka yana tushdi», Markaning qimmatini yanada tushmoqda», «Ish tashladilar», «Marka kurslari», «Germaniyada bolalar och va yalang‘ochdur», «Nonning qadog‘i 210 mln», «Ko‘cha urushlari», «Germaniyadagi ahvol», «Bu kunda Germaniya», «Qancha kishi ishsiz»¹ kabi maqola va xabarlar orqali bayon qilingan.

1922 yilning noyabr oyida Germaniyada bo‘lgan Buxoro Respublikasi hukumati rahbari Fayzulla Xo‘jaevning «Berlin maktublari»da ham Germaniya va uning ittifoqchisi Avstriyadagi iqtisodiy ahvol tahlil qilinadi. Nozir: «Antantaning kuchli raqibi sanalg‘on Avsriya davlati poytaxt Vena shahridan iborat qolg‘on. Avstriyadagi pulsizlik, Olmoniyadagi ishsizlik (Olmoniyada 1,5 mln ishsiz bor) barchani sarosimag‘a solg‘on... Mardikor (erkak ishchilar) ul vaqtlarda bizlarning do‘kondor va chitfurushlardan (savdogarlardan) ham yaxshi bo‘lib, hozirda umumiy iqtisodiy buzg‘unlar (iqtisodiy inqirozlar) natijasida bir oz yomon holatg‘a qolg‘on bo‘lsalarda, yanada ishlab o‘z ahvollarini yaxshi qilmoq umididadurlar»-²deb yozgandi.

F.Xo‘jaev Germaniyada 1922 yil noyabr oyida bo‘lgan edi. U paytda iqtisodiy inqiroz va ocharchilik ommaviy avj olmagan, asta-sekin xavf solib kelayotgan edi. 1923 yil kuziga kelib, ocharchilik inflyasiya va ishsizlik o‘zining ko‘lami jihatidan Germaniya qishloq hamda shaharlarini qamrab olgan. Ayniqsa,

¹ «Бухоро ахбори» 1923 йил 23 сентябрь, 205-сон; 207-сон; 1922 йил 113-сон; 1923 йил; 7 октябрь 211-сон; 14 октябрь, 213-сон; «Озод Бухоро» 1923 йил 25 октябрь 4 (217) сон. 15 ноябрь. 8 (221) сон. 26 ноябрь, 16 (229) сон; 4 декабр; 19 (232)-сон; 11 декабрь, 22-сон.

² «Файзулла. Хўжа. «Берлин мактувлари». Бухоро ахбори» 111-сон. 1922 йил 19 ноябрь;

inflyasiya natijasida nemis markasining kursi kun va soat sayin pasayib borgan. «Buxoro axbori»da: «1923 yilning sentyabri boshlarida 1 AQSH dollari 150 mln. markaga baholangan bo'lsa, bir haftadan so'ng 190 mln. markaga ko'tarildi. Bozorda esa 275 mln marka ekan, 1 oktyabrda (1923 yil) Berlinda dollarning g'ayrirasmiy kursi 242 mln. marka, Frankfurtda 245 mln. markadur... 7 oktyabrda (1923 yil) esa Berlinning qora bozorida dollarning kursi 900 mln. markaga chiqdi»³-kabi xabarlar bosilgandi.

Germaniya markasining qadrsizlanishi mehnatkash aholi turmushiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatning o'nlab shaharlarida ishchilar va xodimlar ko'chalarga namoyish qilib chiqdilar. Ular marka bilan ish haqi to'lashni to'xtatish, oltin so'm hisobida maosh berish talablarini ilgari surdilar. Lekin hukumat davlat xazinasini bo'shligi, byudjet mablag'lari mavjud emasligi uchun namoyishchilarga rad javobini bergan. «Oyliklarni oltin hisobi bilan to'lashni talab qilg'onlariga rad javobini olg'ondan keyin Berlinda butun matbaa ishchilari ish tashlash e'lon qildilar. 1-2 ta gazetalar boshqa, butun gazetalar chiqmay qoldi. Pul chop qilaturg'on davlat matbaasi ham ishlamaydur»⁴ Germaniyaning Berlin Saksoniya, Tyuringiya, Gannover, Gamburg, Bavariya kabi viloyat va shaharlarida och va qashshoq aholi 1923 yil oktyabrda to'polonlar uyushtirgan. Turli-tuman milliy qo'mita, komitetlar tuzilib, hatto, Tyuringiya va Bavariyada yangi hukumat hay'ati saylangan. Iqtisodiy nochor aholi «17 oktyabrda Berlindagi bir necha non do'konlarini talashdi. Do'kon egalarining ko'pisi qo'rqib, o'z ixtiyorlari bilan non tarqatdilar. Nonning bahosi 450 mln markadan 650 mln markaga chiqdi».⁵

1923 yil sentyabr oyida 1 AQSH dollari qora bozorda 900 mln marka baholangan bo'lsa, oradan bir oy o'tib bu astronomik summa rasmiy ravishda qayd qilindi.

Gazeta ma'lumotlaricha, Germaniyaning 70 foizdan ortiq bolalari ochlik, to'yib ovqatlanmaslik tufayli sil kasalligiga duchor bo'lganlar. SSSRda xotin-qizlar tomonidan «Germaniya mehnatkashlarining bolalariga yordam berish ittifoqi» tuzilib, a'zolik badali oltin hisobi bilan 5 tiyin qilib belgilangan.⁶ Kezi kelganda qayd qilish o'rinli bo'lardiki, o'sha paytda 1 AQSH dollariga Buxoroning ikki oltin so'mi tenglashtirilgan. Mazkur ittifoqqa a'zo bo'lib kirgan buxoroliklar ham nemis bolalariga kiyim-kechak va mevalar bilan yordam berishgan, hamda ionalar to'plash ishida ishtirok etishgan.

³ «Бухоро ахбори», 205, 207, 211, 213-сонлари. 1923 йил,

⁴ Бухоро хабарлар рукни. «Иш ташладилар». «Бухоро ахбори» 113-сон. 1923 йил;

⁵ Бухоро хабарлари рукни. «Нон учун». «Озод Бухоро» 4 (217)-сон. 1923 йил 25 октябрь,

⁶ «Германия болалари оч ва яланғочдур» мақоласи. «Озод Бухоро» 8 (221)-сон. 1923 йил 6 ноябрь.

1923 yilning 26-30 noyabr kunlarida nemis markasi soat sayin pasayadi. «Ozod Buxoro»da: «Bir kishi sartaroshga kelib sochini oldira boshladi. Lekin boshini yarmini olgʻondan soʻng sartarosh toʻxtab: «Afandim, davom qilaymi? Marka kursi 25 mlnga koʻtarildi. Boshingizni qolgʻon yarmidagi sochingizni olgʻanim uchun yangi narx toʻlaysiz»⁷ -qabilidagi kulguli xabar bosilgandi. SHaharlardagi ocharchilikdan Germaniyaning 20 mln. aholisi qiynalgan. Ularning koʻpchiligida boshpana yoʻq edi, qorin toʻydirish gʻami bilan yurganliklari uchun, taʼlim nazardan chetda qolgan.

Xabarlardan birida: «Berlinda 420000 ishsiz bor. 2-3 kun ishlovchilar Germaniyada 3 mln.dan oshadur. Gʻolib davlatlar tomonidan ishgʻol qilingan oʻlkalarda ishsizlar soni 2,5 milliondan oshadi»⁸-deb yozgandi.

Ochlikdan qiynalgan xalq kechqurunlari oziq-ovqat qidirib kartoshga ekilgan dalalarga, mevazor va bogʻlarga, doʻkon va oziq-ovqat magazinlariga borib oʻgʻrilik, talovchilik qilishga majbur boʻlgan. Natijada politsiya bilan mehnatkash xalq oʻrtasida toʻqnashuvlar, otishuvlar boʻlib turgan.

Germaniya hukumati aʼzolari esa halokatli inqiroz oldini bartaraf eta olmay, shaxmat ustidagi donalardek, futbol maydonidagi koptokdek 6 oy va 1 yil davomida almashib turardi.

Gazetalardagi Germaniya hayoti bilan bogʻliq maqola va xabarlarni tahlil qilar ekanmiz, iqtisodiy ahvol 1921 yil yozidan boshlab, yaʼni bu davlat reparatsiya (tovon) toʻlovlarini toʻlashga kirishganligi sabab ayanchli tus olganligiga guvoh boʻlamiz. Birinchi jahon urushidan aftoda boʻlib chiqqan Germaniyaning yangi hukumati reparatsiya toʻlovlari uchun vaqt berilishini soʻradi. Germaniya iltimosiga AQSH, Angliya kabi mamlakatlar rozi boʻlsada, lekin tovonning katta qismini olishi kerak boʻlgan Fransiya va Belgiya aksincha yoʻl tutdi. Fransiya Evropada moliyaviy hukmronlikka intilar ekan, Germaniyani iqtisodiy jihatdan kuchsizlantirish, uning boyliklarini talash yoʻlidan bordi.

«Buxoro axbori» va «Ozod Buxoro» gazetalarida Germaniyaning qarzlarini bilan bogʻliq qator maqolalar va xabarlar bosilgan. «Germaniya qarzlarini masalasi», «Germaniyaning urush qarzlarini», «Muzokaralar qizib boradur», «Germaniya qoʻymaydur», «Germaniyaning notasi», «Gʻanimlar bilan savdo qiladur»⁹ kabilarda reparatsiya toʻlovlari ustidagi tortishuvlar, Germaniya xarajatlarining miqdori bilan bogʻliq maʼlumotlar beriladi. «Fransiya juda arzon bahoda Germaniya toshkoʻmirini olgʻusidur, boshqa davlatlar bilan Germaniya savdo qilib bilmaydur. Germaniya shu vaqtga qadar Fransiya qadimiy pul bilan

⁷ «Ozod Buxoro» 16 (229)-son. 1923 yil 26 noyabr.

⁸ Ўша газета, 1923 йил 4 декабрь. 19 (232)-сон; 11 декабрь. 22-сон; (Бу кунда Германия, «Қанча киши ишсиз» хабарлари).

⁹ «Бухоро ахбори», 1923 йил 8 август. 187-сон, 17 август, 191-сон. 10 сентябрь, 194-сон; 1922 йил, 14 сентябрь, 99-сон; 12 ноябрь; 109-сон; 29 ноябрь; 111-сон.

2 mlrd 100 mln, har xil mol bilan 16 mlrd 300 mln marka berdi. Germaniyadagi «tartib qilish uchun kirgan» fransuz askarlari ehtiyoji uchun 19 mlrd 700 mln marka berilgan».¹⁰ Germaniya davlat xazinasi bo'shligi uchun Fransiya tovon pulini mahsulot va turli mollar hisobida ola boshlagan. To'lanishi kerak bo'lgan kontributsiya haqlari uchun Fransiya sanoat ehtiyojlariga zaruriy ko'mir va temir ko'plab miqdorda olib ketilgan. Fransiya hukumati Germaniyaga qarz beradigan mamlakat yo'qligini ham hisobga olmagan edi. German markasining tushib borishi esa, toshko'mirni Fransiya va Belgiya tomonidan suv tekinga toshib ketishiga imkon berardi.

Germaniyadan tovon evaziga olingan tovar va mollarni Fransiya boshqa mamlakatlarga sotib boyish yo'lini tutgan.

«Fransiya hukumati Germaniyadan tovon qilib olg'on mollaridan 200 adad paravoz hamda 6 ming adad vagonlarini hozirda o'z mollari kabi Polshag'a sotg'on».¹¹

Germaniya qarzlar masalasida AQSH va Evropa mamlakatlari turlicha yo'l tutganligi gazetalarda o'sha davr hukumat rahbarlari hamda tashqi ishlar vazirlarining notalari bayoni orqali keng yoritilgan. Xabarlardan ma'lum bo'lishicha, AQSH, Angliya, Italiya kabi davlatlar tovon pulini qattiq turib talab qilmaganlar. Birinchidan, Germaniyadan olinadigan pullarning uchdan ikki hissasi Fransiya tegardi. Ikkinchidan esa, AQSH va Angliya Germaniyani Evropa siyosatidan chetga surib qo'yish niyatida emasdilar. Keyingi tarixiy voqealar Germaniyaga AQSH tomonidan katta miqdorda iqtisodiy madad berilishi, Daues-Yung rejasi (1924, 1929 yillar) orqali ko'rsatilgan yordam tufayli nemis davlati iqtisodiy jihatdan tiklanganligiga guvohdir.

«Buxoro axbori» va «Ozod Buxoro»ning o'nlab sonlarida Fransiya davlatining Germaniyaga nisbatan agressiv siyosati, Rur o'lkasiga fransuzlar bosqini va o'sha atrofda kechgan voqealar atroflicha yoritilgan. Reparatsiya (tovon) pullarini o'z vaqtida to'lash imkoni bo'lmagan Germaniyaga nisbatan Fransiya jazo choralarini ko'rgandi.

Fransiya hukumati Germaniya Versal konferensiyasi qarorlarini bajarmayotganligini rasmiy e'lon qilib, 1923 yil yanvarida Rur o'lkasidagi Reyn viloyatiga bostirib kirdi. Natijada «Rur masalasi» jahon matbuoti organlarida eng muhim mavzulardan biriga aylandi¹². Jumladan, «Buxoro axbori» gazetasining 1923 yil sonlarida «Rur o'lkasi atrofida», «Rur o'lkasi tevaragida», «Rur o'lkasida», «Rur masalasi», «Rurda ahvol», «Germaniyada keyingi hollar»,

¹⁰ Хорижий хабарлар; «Германиянинг нотаси». «Бухоро ахбори» 99-сон. 1922 йил 14 сентябрь.

¹¹ Хорижий хабарлар; «Ғанимлар билан савдо қиладур». «Бухоро ахбори» 111-сон. 1922 йил, 29 ноябрь.

¹² Қаранг: Г.Ҳидоятлов. Жаҳон тарихи (Энг янги давр 1-қисм 1914-1945 йиллар) Тошкент. «Шарқ»-2000 йил. 83-бет.

«Germaniya-Fransiya orasida»¹³ ruknlari ostida salmoqli xabar va maqolalar e'lon qilindi.

Fransiya istilochilik siyosatiga Germaniya tinch namoyishlar o'tkazish va ish tashlashlar bilan javob berdi. Chunki Germaniyada Fransiya harbiylariga zarba beradigan qudrat mavjud emas edi. Germaniyaning metal va ko'mirga boy o'lkasi bo'lmish Rurni fransuzlar bosib olganidan so'ng, nemis ishchilari bosqinchilar foydasiga ishlashdan bosh tortdilar. Natijada Fransiyadan 1923 yil qishida bu erga 3850 ta fransuz ishchilari keltirildi. "Reyn o'lkasi qo'mondoni 1923 yil 25 yanvarda Germaniyaning butun siyosiy tashkilotlarini, korxonalarini Fransiyaga e'tiroz nishoni o'laroq, yarim soat miqdorida hamma ishlarini tashlab, ta'til qilg'a qaror chiqarg'on. Temir yo'l munosabati bo'lsa, faqat o'n daqiqa ta'til qilg'usidur»¹⁴-deyiladi xabarlardan birida.

Germaniyada ko'mir va metal ishlab chiqarish magnatlari (trest va kompaniyalar rahbarlari) Fransiya bilan kelishishga harakat qildilar. Lekin olinajak foydani bo'lish masalasida kelisha olmaydilar. Nemislar 60 foiz daromad o'zlariga, 40 foizi esa Fransiyaga bo'lishini taklif etdilar. Lekin fransuzlar teng sherikchilik tarafdori edilar. Umumiy til topolmagan hukmron kuchlar Rur o'lkasidagi vaziyatni keskinlashtirib yubordilar. Germaniyaga ko'p miqdordagi fransuz to'p, tank va harbiy avtomabillar keltirildi. Rur o'lkasining bir qator shaharlarida fransuz ma'murlari kela boshlaydi.

Xabarlardan birida: «Dyusseldorf shahriga 25 nafardan iborat Fransiya ma'murlari kelgan»¹⁵-deb yoziladi. Fransuz vakillarining vazifasi 24 soatlab ish tashlagan, ya'ni fransuzlar foydasiga ishlashni xoxlamagan nemis ishchilarini harbiy hukmga mahkum etib, «tartib o'rnatish» bo'lgan edi.

Germaniyaning Rur o'lkasida ish tashlagan mehnatkashlar askarlarning qurol kuchi bilan ham ishlashni istamadi. Hatto pochta va telegraf liniyalari ham uzib tashlandi. «Rur o'lkasida aloqa vositalaridan ajralib qolg'on fransuzlar o'zlarining 30 dan ziyod Fransiya radiostansiyalarini o'rnatg'onlar»¹⁶.

Gazetalarda Rur o'lkasi bilan bog'liq mojarolar haqida fikr yuritilar ekan, Germaniyada ishchi va inqilobiy qo'mitalar, milliy hukumatlar tuzilayotganligi, ularning maqsadi Fransiyaga qurolli yo'l bilan zarba berish, mamlakatda mehnatkashlar manfaatini himoya qiladigan hukumat tuzish bilan bog'liq ko'plab xabarlarning ham guvohi bo'lamiz.

¹³ «Бухоро ахбори» 1923 йил 130, 132, 133, 140, 148, 157, 158, 159, 160, 161, 163, 164, 166, 172, 174, 175, 177, 184, 185, 190, 201, 203, 207, 208-сонлари; «Озод Бухоро» 1923 йил 13, 17, 21-сонлари.

¹⁴ Германияда рукни. «Ўн минутлик эътироз». «Бухоро ахбори» 130-сон. 1923 йил 1 февраль

¹⁵ Германия ва Франция орасида. Француз маъмурлари келганлар. «Бухоро ахбори» 131-сон. 1923 йил 5 февраль.

¹⁶ Германия-Франция орасида. «Франция радиостанциялари». «Бухоро ахбори» 137-сон. 1923 йил 1 март.

Saksoniya va Tyuringiya viloyatlarida hatto ishchilarning milliy hukumatlari ham tashkil topdi.

«Buxoro axbori»ning 1923 yil 31 martdagi sonida Germaniyaning Rur o'lkasiga Fransiyaning bostirib kirishini qoralashga qaratilgan namoyish va miting Buxoroda ham o'tkazilganligi qayd qilinadi. Namoyishda Buxoro harbiy kursi o'quvchilari Amudaryo floti xizmatchilari, temiryo'lichilar, firqa a'zolari hamda yoshlar ittifoqi vakillari, rus qizil askarlaridan iborat mingga yaqin kishi ishtirok etgan¹⁷.

Bunday namoyishlar Fransiyaning o'zida, YAponiyada, Angliya va Italiyada bo'lganligi haqida xabarlar mavjud.

Fransiya hukumati o'ziga Evropadan ittifoqchilar qidirish, Germaniyada olib borayotgan siyosatini xaspo'shlash uchun diplomatik chora-tadbirlar ko'rgan. Nutqlaridan birida Lloyd Jorj Rur masalasida gap aytish fursati hali etgan emas deb, Fransiya bilan ham munosabatlarini keskinlashtirishni istamaydi.

YOki Fransiya hukumati o'zini qo'llashi uchun imtiyozli baholarda «CHexoslavakiyaga 110 adad yangi hozirlong'on aeroplan topshirg'on»¹⁸.

Ingliz hukumati rahbari Lloyd Jorj bilan Puankare muzokaralarida Angliyani betaraflashtirish (hech bo'lmasa) maqsadga qaratilgan amaliy harakatlar bo'lgan. Lekin F.Xo'jaev jahon bozorlarini egallashda Angliya-Fransiya o'rtasidagi raqobat kuchliligi haqida yozadi. Bu ikki mamlakat muhim xom ashyo bazasi va sanoat mahsulotlari sotadigan bozorlar masalasida hech qachon kelishmagan deb hisoblaydi. «Fransiya Olmon puli (tovon bilan) quvvatlanib ketmog'idan qo'rqq'on Angliya va Italiya davlatlari har vaqt Fransiyaning Olmoniyani talamog'iga mone' bo'lishig'a tirishadurlar... Fransiya Olmoniyani talamoqqa tirishsa, 2-tarafdin Angliya ham yuqoridagi siyosat bilan Ovropa va Olmoniyani Fransiyaqa raqib qilib yasatmoqqa tilaydur»¹⁹.

AQSH-Angliya, Fransiya-Angliya munosabatlaridagi ziddiyatlar Germaniyaga ma'lum ma'noda qo'l kelganligini, bu esa uni Evropa siyosatidan «urib tushirish» oldini olishga xizmat qilganligi «Buxoro axbori» va «Ozod Buxoro»ning xorijiy xabarlar rukni ostidagi qisqa ma'lumotlarda qayta-qayta ta'kidlangan. Fransiya siyosatining zo'rovonlikdan iboratligi aniq dalillarda ko'rsatiladi. «Fransiya hukumati Germaniyaning javobiga qarshi birinchi navbatda Elzasda yashagan 150 ming nafardan iborat bo'lg'on nemislarni quvg'in qilg'on va ularning mol, amloklarini zabt etmak bilan tahdid qiladur ekan»²⁰. Germaniyadagi tartibsizliklarni, qonli to'qnashuvlarni oldini olish, Rur o'lkasiga fransuz

¹⁷ Вилотларда рукни. «Мухбир». «Рур ўлкасини босиб кирмак муносабатила намоиш». «Бухоро ахбори» 149-сон. 1923 йил 31 март.

¹⁸ Хорижий хабарлар. «Хозирланадур». «Бухоро ахбри» 91-сон. 1922 йил 20 июль.

¹⁹ Ф.Хўжаев. «Берлин мактублар». «Бухоро ахбори» 111-сон. 1922 йил 19 ноябрь

²⁰ Хорижий хабарлар. Германиянинг жавобидан сўнг. «Бухоро ахбори» 96-сон. 1922 йил 24 август.

qo'shinlarini nemis shaharlari (Maynits, Iss, SHtutgart)ga kelib joylashayotganligini oldini olish uchun Germaniya hukumati bir qator tadbirlar ko'rgan. Tartibsizliklarni bartaraf qilish uchun «to'plar sultoni» mashhur «Krupp» korxonasi 12 mlrd marka mablag' ajratgan. Germaniyadagi vaziyat 1924 yil oxiriga qadar o'nglanmadi.

Insoniyat boshiga og'ir kulfatlarni olib kelgan Italiya va Germaniyada ildiz otib borayogan fashizm, uning daslabki bosqichdagi nayranglari haqidagi ma'lumotlar ham «Buxoro axbori» va «Ozod Buxoro» gazetalarida mutassil yoritib borilgan. Ma'lumki, Adolf Gitlerning (1889-1945 yillar) hokimiyat uchun birinchi urinishi 1923 yil noyabrda ro'y bergan. Gazetalar Bavariyaning diktatori Kork prinsi esa Rubrex bo'lganligi, Gitler va uning tarafdorlari majlislar zaliga bostirib kirganligi, uch kun davomida harbiy vazirlik binosini o'z qarorgohiga aylantirganligini ta'kidlaydilar²¹. O'zaro to'qnashuvda ikki tomondan 70 kishi o'ldirilgan. Gitlerchilardan 8 kishi qamoqqa olingan. Ular orasida Lyudendorf ham bo'lgan. Qochishga muvofiq bo'lgan Gitler 11 noyabr (1923 yilda) o'z ixtiyori bilan asir tushadi. Bu bejiz emasdi. «Buxoro axbori»ning yozishicha, Bavariya hukumati avvaldan fashistlarga yordam berib turgan, keyinchalik ayrim sabablarga ko'ra, pul berishni to'xtatgan Bu esa fashistlar isyoniga sabab bo'lgan. Bavariya hukumati fashistik va kommunistik tashkilotlarni tarqatilgan deb e'lon qildi.

Hudud bo'ylab kechqurun soat 7. 00 dan ertalab 5. 00 gacha aholining erkin yurishi taqiqlandi, ya'ni komendantlik soati joriy qilindi²².

«Buxoro axbori»dagi maqolalar orqali fashistik isyonning sabablari, mohiyati yanada yorqinlashtirilganligining guvohi bo'lamiz. Germaniyadagi siyosiy inqirozning chuqurlashuvi nemis viloyatlaridagi turli-tuman hukumatlar olib borgan noizchil siyosat fashizmning aholiga ta'sir ko'rsatish jarayoniga turtki bo'lgan. A.Gitler va uning tarafdorlari ba'zi hukumatlardan yordam olish, AQSH va Angliya magnatlarining mablag'iga tayanib, 1920 yillardayoq amaliy harakatlarni boshlaganligi uchun ijtimoiy xavfliligi, fashistlarni «alg'ov-dalg'ovlar»dan foydalanib, hokimiyat tepasiga kelishi mumkinligi xabarlarida o'z ifodasini topgan. Maqolalardagi tarixiy jarayonlarni oldindan ko'rib bilish jihatlari muhim ahamiyatga ega.

Xullas, «Buxoro axbori» va «Ozod Buxoro» gazetolari 1920-1924 yillarda Germaniyaning ichki va tashqi ahvoli bilan bog'liq raqam va voqealarga boy ma'lumotlar beradi. Ayni paytda bu matbuot organlari bugungi kungacha Germaniya tarixi bilan bog'liq o'quv qo'llanmalarini va kitoblardagi kemptik o'rinlarni to'ldirishda, ayrim tarixiy voqealarga haqiqiy, xolisonilla bilan baho berishda, masalalar mohiyatini chuqur anglashda muhim manbalardan biridir.

²¹. «Германияда фашистлар исёни бостирилди». «Озод Бухоро» 13 (226)-сон. 1923 йил 17 ноябрь.

²² Германияда рукни. «Кечалари юрмак маън қилинди». «Озод Бухоро» 13 (226)-сон. 1923 йил 17 ноябрь.

“1918-1939 yillarda Germaniya” mavzusini o‘rganishda yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalarni qo‘llashning usullari

Interfaol usullaridan foydalanish bo‘yicha qo‘shimcha tavsiyalar

“ 5 daqiqa” usuli

O‘quvchilarni shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima yozayotganligini ko‘rmasin. O‘qituvchi vazifa beradi, masalan: mavzuga doir sanalarni yozish. O‘quvchilar yozishni bir vaqtda tugatishi shart. Ko‘p sanalarni yozgan va to‘g‘ri izohlab bergan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

- Misol : 1918-yil
- 1919-yil
- 1920-yil
- 1924-yil
- 1933-yil
- 1939-yil


“Pochta” usuli

O‘qituvchi bir nechta (mavzuga mos) konvert olib uning ustiga eng zarur bo‘lgan asosiy yozuvlarni yozib qo‘yadi va ularni stol ustiga ko‘zga ko‘rinarli qilib joylashtiriladi. Masalan: “Urushning Germaniyaga ta’siri”, “Germaniyada hokimiyat uchun og‘ir kurashlar”, “Fashizmning kuch-quvvati” “Kurashning yangi bosqichi” deb yoziladi. Endi bu rejalarga mos fikr va atamalar yozilgan qog‘ozchalar o‘quvchilarga tarqatiladi. Qaysi fikr yoki atama konvertlardagi rejalarga mos kelsa o‘sha konvertga solinadi. Kim savollarga ko‘p va aniq javob topib konvertga joylashtirilsa o‘sha yuqori ball oladi.

Venn diagrammasini qo‘llash

Venn diagramma – grafik ko‘rinishda bo‘lib, olingan natijalarni umumlashtirib, ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetni (ko‘rinish, fakt, tushuncha) tahlil qilish va o‘rganishda qo‘llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylanani kesishmasidan hosil bo‘ladi.

Maqsad: ikki va undan ortiq predmet va tushunchalarni taqqoslashda, turli va umumiy tomonlarini aniqlashda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish.



-to'rtinchi qator - mavzuga munosabatni bildiruvchi to'rt so'zli fikr xosil qilish

Masalan,

- *Fashizm*
- *italyancha so'z*
- *o'ta agressiv g'oya*
- *hokimiyatni qo'lga kiritish harakati*

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi

Kichik guruhlarda ishlash -o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lum bir topshiriqni hamkorlikda bajarish uchun o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, berilgan topshiriqning echish yo'llarini ishlab chiqishni taqozo etuvchi metoddir.Ushbu **metod qo'llanilganda o'quvchi** kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi. **Kichik guruhlarda ishlash metodi qo'llanilganda o'qituvchi** boshqa noan'anaviy metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

Masalan,

1-guruh uchun savollar:

- 1.Germaniyada inqilob qaysi shahardan boshlangan ?
- 2.1920 yilning 13 martida ko'tarilgan isyonchilarning chekinishiga qanday holat sabab bo'lgan?
- 3.Fashizm tarafdorlari tomonidan kasaba uyushmalari o'rnida qanday tashkilot tuzilgan?

2-guruh uchun savollar:

- 1.Spartakchilar guruhining dasturlari keyinchalik qaysi partiya uchun asos bo'lgan?
- 2.Gitlerchilar ersiz dehqonlarni qanday yo'l bilan o'zlariga qaratganlar?
3. 1939 yilda Germaniyada diviziyalar soni qaysi yilgi darajaga etdi ?

“Klaster” metodi

“Klaster” metodi-pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. «Klaster» metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning

ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga hizmat qiladi.

«Klaster» metodini o'tkazish texnologiyasi:

1-bosqich. Nimaniki o'ylagan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing. Fikringizni sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boring.

2-bosqich. YOzuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang.

3-bosqich. Belgilangan vaqt nihoyasiga etmaguncha, yozishdan to'xtamang. Agar ma'lum muddat biror-bir g'oyani o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g'oya tyg'ilgunga qadar davom ettiring.

4-bosqich. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling. Foyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang.

«AQLIY HUJUM» metodi

Aqliy hujum - g'oyalarni generatsiya (ishlab chiqish) qilish metodidir. «Aqliy hujum» metodi biror muammoni echishda o'quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir echimga kelinadigan eng samarali metoddir. Aqliy hujum metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida o'qituvchi tomonidan berilgan savolga o'quvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. O'quvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. YOzma shaklida esa berilgan savolga o'quvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. «Aqliy hujum» metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

Aqliy hujum metodining yozma shakli uchun tezkor savollar:

1. Germaniyada inqilob qaysi shahardan boshlangan ?
2. Germaniyadagi eng ommaviy partiya qaysi ?
3. Veymar konstitutsiyasiga ko'ra, Prezident necha yilga saylangan?
4. Daues rejasi (1924) qaysi shaharda bo'lib o'tgan konferensiyada qabul qilingan
5. Germaniya qachon Millatlar Ligasiga qabul qilingan ?

Aqliy hujum metodining og'zaki shakli uchun tezkor savollar:

1. Daues rejasiga Fransiya nima sababdan rozilik bildirishga majbur bo'lgan ?
2. Fashizmning o'ziga xos belgilari nimalardan iborat?
3. Gitlerni hokimiyat tepasiga kelishiga qanday omillar sabab bo'lgan?

“Qarorlar shajarasi”

Guruh yoki sinf o‘quvchilari ishtirokida qo‘llaniladigan "Qarorlar shajarasi" bir necha o‘n nafar o‘quvchilarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta’lim jarayonida mazkur metodning qo‘llanilishi muayyan qaror yuzasidan oqilona qaror qabul qilishda o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkonini yaratadi.

"Qarorlar shajarasi" metodi					
Muammo:					
Fashistlarning ta’lim sohasidagi “islohoti”ni qanday baholaysiz ?					
1-qaror variantlari		2-qaror variantlari		3-qaror variantlari	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Qaror					

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. XX asrning boshlarida Germaniya aholisi uchun qanday holatlar katta kulfat keltirgan ?
2. Germaniyada inqilob qaysi shahardan boshlangan ?
3. Germaniyadagi eng ommaviy partiya qaysi ?
4. Spartakchilar guruhining dasturlari keyinchalik qaysi partiya uchun asos bo'lgan?
5. 1918 yil Berlin shahrida ishchilarning stixiyali chiqishidan bosh maqsad, bu-
6. Veymar konstitutsiyasiga ko'ra, Prezident necha yilga saylangan?
7. 1920 yilning 13 martida ko'tarilgan isyonchilarning chekinishiga qanday holat sabab bo'lgan?
8. Daues rejasi (1924) qaysi shaharda bo'lib o'tgan konferensiyada qabul qilingan ?
9. Daues rejasiga Fransiya nima sababdan rozilik bildirishga majbur bo'lgan ?
10. 1924-1929 yillarda AQSH Germaniyaga qancha sarmoya kiritgan?
11. 1925 yil tuzilgan Lokarno shartnomasining kafillari deb qaysi davlatlar belgilangan ?
12. Germaniya qachon Millatlar Ligasiga qabul qilingan ?
13. Gitler tomonidan tuzilgan razvedka va kontrrazvedka xizmati qanday nomlangan ?
14. Germaniyada qachondan boshlab umumiy harbiy majburiyat to'g'risida qonun kuchga kirgan?
15. Fashizm tarafdorlari tomonidan kasaba uyushmalari o'rnida qanday tashkilot tuzilgan?
16. Gitlerchilar ersiz dehqonlarni qanday yo'l bilan o'zlariga qaratganlar?
17. 1939 yilda Germaniyada diviziyalar soni qaysi yilgi darajaga etdi ?
18. Fashizmning o'ziga xos belgilari nimalardan iborat?
19. Gitlerni hokimiyat tepasiga kelishiga qanday omillar sabab bo'lgan?
20. Germaniyada kommunizm g'oyalari tarafdorlari hokimiyat tepasiga kelganda qanday o'zgarishlar yuz bergan bo'lar edi?
21. Veymar respublikasi hukumati nima sababdan fashizmning hokimiyat tepasiga kelishiga qarshilik qilolmadi?
22. Fashistlarning ta'lim sohasidagi "islohoti"ni qanday baholaysiz ?
23. Germaniyada fashizmning yuzaga kelishining asosiy sabablari nimalardan iborat ?
24. A. Gitlerning ichki siyosati haqida qanday fikrdasiz?
25. 1918-1939 yillarda Germaniyaning tashqi siyosati qanday yo'nalishlardan iborat bo'ldi?

Mavzu yuzasidan test savollari

1. Kil shahri (Germaniyada) harbiy dengizchilari qanday sabablarga ko‘ra qo‘zg‘olon ko‘tardilar?
 - A) Oziq – ovqat etishmasligi tufayli
 - B) Rossiyadagi inqilobdan ilhomlanib
 - C) Urushni davom ettirishga qarshi
 - D) Respublika o‘rnatish maqsadida
2. Germaniyada inqilob bo‘layotgan vaqtda qaysi shaharda ishchi- soldat sovetlari tashkil topdi?
 - A) Bavariya
 - B) Kil
 - C) Berlin
 - D) Veymar
3. Qachon Germaniyada kasaba uyushmalari va ish beruvchilar orasida kelishuvga erishildi?
 - A) 1919-yil 10-noyabr
 - B) 1918-yil 15-noyabr
 - C) 1919-yil 30-dekabr
 - D) 1919-yil 19-noyabr
4. Quyidagi shaxslardan kimlar GSDP ning so‘llar guruhi vakillari edilar?
 1. F.Ebert 2. K.Libknext 3. Gaaze 4. Noske 5. Kautskiy 6. R.Lyuksemburg 7. SHeydeman 8. Brenshteyn
 - A) 2,6. B) 1,4.
 - C) 3,5. D) 2,3.
5. Quyidagi shaxslardan kimlar GSDPning markazchilar guruhi vakillari edilar ?
 1. F.Ebert 2. K.Libknext 3. Gaaze 4. Noske 5. Kautskiy 6. R.Lyuksemburg 7. SHeydeman 8. Brenshteyn
 - A) 2,6 B) 1,4
 - C) 3,5 D) 2,5
6. Quyidagi shaxslardan kim Germaniyada millatchilik g‘oyalarini avj oldirgan ?
 - A) V.Kapp
 - B) Lyudendrof
 - C) V.Kuno
 - D) R.Lyuksemburg
7. Germaniyada jamoatchilik fikrini belgilashda hal qiluvchi mavqega erisha olgan edi.
 - A) Reyxstag
 - B) yangi sarmoyadorlar
 - C) CHet el intervensiyasi

D) Reyxsver

8.Qachondan boshlab Germaniya va Fransiya bir- biriga hujum qilmaslik majburiyatini oldilar?

A)1932-yil

B)1935-yil

C)1925-yil

D)1928-yil

9.Fashizm Germaniyada hokimiyat tepasiga kelgach Gitler hukumati birinchi navbatda yo‘q qilishga kirishdi.

A)Muxolifatni

B)Parlament demokratiyasini

C)Siyosiy demokratiyani

D) Ijtimoiy jarayonlarni

10. Gitler nima uchun Reyxstag binosiga o‘t qo‘yishni uyushtirdi?

A)Siyosiy partiyalar faoliyatiga barham berish uchun

B)Butun hokimiyatni o‘z qo‘liga jamlash uchun

C)Germaniyada parlament demokratiyasini yo‘q qilish uchun

D) Qo‘rquvga solish

11. Qaysi voqea Gitlarning favqulotda vakolatlarini kengaytirdi?

A)“Uzun pichoqlilar kechasi

B)GSDP ning faoliyatiga barham berish

C)Germaniyada harbiy xizmatning joriy qilinishi

D)Gindenburgning “Xalq va davlatni muhofaza qilish to‘g‘risida” gi dekretini imzolashi orqali

12.Qachondan boshlab Germaniyada 18-25-yoshlilar uchun ichki mehnat majburiyati joriy etildi?

A)1933-yil mayda

B)1934-yil dekabrda

C)1935-yil martda

D)1936-yil yanvarda

13.Qachondan boshlab Germaniyada fuqaro uchun mehnatni erkin tanlash huquqi bekor qilindi?

A)1934-yil

B)1937-yil

C)1935-yil

D)1932-yil

14.Qachon Germaniyaning yirik va etakchi sanoatlari, sarmoyadorlari Gitler bilan uchrashib, u kansler bo‘lishi kerak degan xulosaga keldilar?

A)1932-yil 6-noyabrda

B)1933-yil 4-yanvarda

C)1934-yil 30-iyunda

D)1930-yil aprelda

15. Qaysi yil Evropa davlatlari tomonidan Germaniya buyuk davlat sifatida tan olindi?

A)1932-yil

B)1935-yil

C)1938-yil

D)1926-yil

16.Germaniya iqtisodiyotining gurkirab rivojlanishiga, uning harbiy qudrati qayta tiklanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan omilni toping ?

A)“Daues rejasi”

B)“YUng rejasi”

C)“Rapallo bitimi”

D)“Reyn kafolat pakti”

17.Germaniyada qaysi hukumat Antanta davlatlariga tovon to‘lamaslikni zo‘r berib targ‘ib eta boshladi?

A)Ebert hukumati

B)Katta kaolitsiya hukumati

C)Kuno hukumati

D)Gitler hukumati

18.”Daues rejasi”da qanday yo‘llar bilan Germaniya sanoatini tiklash ko‘zda tutildi?

1.chet el sarmoyasi yordamida 2.chetdan keladigan mahsulotlarga yuqori foizli bojlar belgilash orqali 3.zamonaviy texnologiyalar yordamida 4.Germaniya va Rossiya o‘rtasida savdoni yanada rivojlantirish orqali 5.sanoatning yangi sohalarini rivojlantirish orqali

A)1,3

B)2,3

C)4,5

D)1,4

19.”Reyn kafolat pakti”ning xalqaro kafillari deb belgilangan davlatlarni toping.

A)Buyuk Britaniya, Fransiya

B)Fransiya, Italiya

C)Fransiya, Belgiya

D)Italiya, Buyuk Britaniya

20.Gitlarning yirik sarmoyadorlar bilan birinchi uchrashuvi qachon bo‘lib o‘tdi?

A)1932-yil 30-yanvar

B)1933-yil 30-yanvar

C)1932-yil 27-yanvar

D)1933-yil 27-yanvar

21.A.Gitler sotsial-demokratlarga qanday xatolikka yo‘l qo‘yganlikda aybladi?

A)“qizil diktatura”ni o‘rnatmoqchi bo‘lganlikda

B)sovetlarning josusi sifatida

C)Birinchi jahon urushida Germaniya taqdiri hal bo‘layotgan kezlarda noyabr inqilobini keltirib chiqarganlikda

D)Antantaga taslim bo‘lganlikda

22.Quyidagilardan qaysi biri Germaniyadagi fashistlar partiyasining nomi hisoblanadi?

A)“Fashi di kombattimento”

B)“Nemis milliy-sotsialistik ishchi partiyasi”

C)“Nemis milliy partiyasi”

D)“Katolik markaz partiyasi”

23.Quyidagi qaysi hujjatda xususiy mulkning muqaddas va daxlsiz ekanligi qayd etilgan?

A)Veymar konstitutsiyasida

B)“Xalq va davlatni muhofaza qilish tog‘risida”gi dekretida

C)“Milliy mehnatni tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunda

D)“Xalq fronti dasturi”da

24.Germaniyada davlat boshqaruvining burjua demokratik shaklining totalitar diktatura bilan almashinuvi qachon yuz berdi?

A)1934-yil

B)1926-yil

C)1933-yil

D)1932-yil

25.1919-yildan 1923-yil oxirigacha Germaniyada keskin siyosiy vaziyat saqlanib turishining sababi nimada edi?

A)Versal shartnomasi va Veymar Konstitutsiyasiga qarshi kuchlarning bosh ko‘targanligi

B)“Spartak” guruhi tomonidan hokimiyatni egallash maqsadida chiqishlar uyushtirib turilganligi

C)Antanta davlatlarining Germaniyaga qarshi yangidan urush boshlash xavfining mavjudligi

D)Germaniyada fashistlar partiyasining shakllanayotganligi

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.: “Sharq”, 1998.
4. Karimov I.A. Evropa Ittifoqi mamlakatlari davlat va hukumat boshliqlari kengashida so‘zlagan nutq. 5-jild. T., “O‘zbekiston”, 1997.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T., “O‘zbekiston”, 2009.
6. Aleksandrov V.V. Noveyshaya istoriya stran Evropy i Ameriki. M., 1988.
7. Raxmonov K. Matbuotda dunyo mamlakatlaridagi ijtimoiy- siyosiy muammolar talqini. BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI. 2011. № 1. –B.4-7.
8. Raxmonov K. Buxoro tadbirkorlari Germaniyada. “Tadbirkorlik - xalq farovonligining garovi” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. -Buxoro, 2011. -B.62-64.
9. Raxmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida. Monografiya. -Toshkent, “ABU MATBUOT - KONSALT”, 2012 y. 175 bet.
10. Raxmonov K. Germaniya savdo shirkatlarining Buxorodagi faoliyati tarixidan (1920-1924 yillar). TURON FANLAR AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI. № 2. –Toshkent, 2014. –B.154-157.
11. Raxmonov K. Turkistonda matbuot tarixining dolzarb muammolari (1870-1924 yillar). O‘quv qo‘llanma. -Buxoro, 2015 y. 116 bet.
12. Xaitov SH. Raxmonov K. Buxoro Xalq Respublikasi va Germaniya: hamkorlikning tarixiy lavhalari. Toshkent, «Fan» - 2004yil.
13. Buxoro Respublikasining Germaniyadagi o‘quvchilari. «Pedagogik mahorat» 2004; №2; 40-42 b.
14. Xaitov SH.A. O‘zbek muhojirligi tarixi. Bakalavriatning tarix yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. Buxoro-2015. 218 bet.

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
“1918-1939 yillarda Germaniya” mavzusining mazmuni.....	5
“1918-1939 yillarda Germaniya” mavzusini oʻrganishga oid qoʻshimcha materiallar.....	9
“1918-1939 yillarda Germaniya” mavzusini oʻrganishda yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalarni qoʻllashning usullari.....	16
Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar roʻyxati.....	25